

жақтан бир қыйлы» деген мақалға айланып кеткен түсиник әдебиеттің ең бир ески хәм бахалы жанры болып келген

ертеклер ушын да ортақ бола алатуғынлығына даў жок.

Әдебиетлар

1. Брагинский В.А. «Мифические легенды» -М.: 1983. -С. 26
2. Веселовский А.Н. «Славянские сказки о Соломоне и Китоврасе и западные легенды о Морольфе и Мерилине». -М.: 1958.
3. Мелитинский Е.М. «Мифы и их классические формы». -М.: 1958. -С.76.
4. Каракалпак фольклоры Т. 67. -Нөкис: 2014, 6-б.
5. Толкиен Р.Р. «Tree and Leaf» -М.: 1981. -С. 55.

РЕЗЮМЕ

Мақола инглиз ва қарақалпақ халқ әртакларини қиёсий ўрганиш масалаларига бағишланган. Унда муаллиф әртак қахрамонларининг тасвирланишига алоҳида диққат қилиб, икки қардош бўлмаган халқ әртакларининг композицион-сюжети масалаларини таҳлил қилади. Таҳлилот нәтижеларидан муаллиф икки маданиятга хос әртаклар намуналаридан умумий типологик ўхшашлиқлар ва ғоявий - композицион тузилишидан муштараклиқлар топади.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается к вопросу сопоставительного изучения английских и каракалпакских народных сказок. В ней автор анализирует сюжетно-композиционные вопросы сказок этих двух неродственных народов, уделяя должное внимание на описание главных персонажей. Выявлены типологические особенности и общности в идейно-композиционной строении сказок этих двух культур.

SUMMARY

The article deals with the comparative study of English and Karakalpak folk tales. In the article the author analyses the plot and composition of folk tales of these two different peoples, paying a proper attention to the main characters in tales. There have been emphasized some specific typological peculiarities and similarities in their composition and ideological contents of fairy tales of these two different cultures.

SHUHRATNING «OLTIN ZANGLAMAS» VA O'.HOSHIMOVNING «TUSHDA KECHGAN UMLAR» ROMANLARI ANALOGIK TALQINI

M.Yadgarova- magistranti

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: mavzu, motiv, tasvir ruhiyati, jamiyat, davr ruhiyati, ijtimoiy muhit, poetik talqin, analogik talqin, davr.

Ключевые слова: тема, мотив, описание духовности, общество, духовность периода, общественная среда, поэтический комментарий, аналогическая критика, эпоха.

Key words: topic, motive, description of spirituality, society, epoch spirituality, social environment, poetic commentary, analogous criticism, epoch.

Mavzu va motivizatsiya mustarakligi adabiy talqin teranligini ta'minlaydigan yetakchi omil, unda muqoyasa umumiy mohiyat va xususiy aqidani yaxlitlashlashtirishga xizmat etadi. To'g'rirog'i, ijtimoiy-falsafiy asos tahlil predmetiari botiniy munosabatdorlik hosil qiladi. Badiiy mushohada tig'izligi va tasvir ruhiyati o'ziga xosligi ijod miqyosini belgilaydi. Jamiyat maishiy hayoti hamda shaxs manfaat-ehtiyojlarini butun ziddiyatlari bilan jilvalantirish har bir iste'dod qamrovida tamomila o'zgachalanadi. Binobarin, chinakkam san'atkor «o'z iste'dodi bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo'lishdek og'ir va murakkab, ulug' bir vazifani zimmasiga olgan ekan, avvalo, el-yurt oldidagi farzandlik burchini, grajdanlik pozitsiyasi va mas'uliyatini chuqur sezishi, anglashi hal qiluvchi ahamiyatga ega» [1:17]. Iqtibosda bir nechta xususiyat e'tiborni tortadi: birinchidan, asl iqtidor odamzod dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, sub'ektda axloqiy pozitsiya va fuqarolik mas'uliyati birlashadi, uchinchidan, ijodkor xalq va shaxs iroda yo'nalishini o'zida jilolantiradi. Shu ma'noda, milliy ifoda o'lchamidan umuminsoniy mezonga qadar muttasil harakatlanadigan poetik tabdilda davr ruhiyati tugal in'ikosini topadi. Ayniqsa, plastik janr – romanda tasavvur daraja ko'rsatkichi yanada to'laqonli namoyon bo'ladi. Poetik namoyish muallif shaxsiyati vositasida ijodiy mustaqillikka intiladi. Aynan realistik voqelik turg'unligi materiya qirralarini batafsil yoritish hamda turfa rakurslardan baholashga zamin hozirlaydi:

– Bugun Maratni juda boshqacha erkalab qoldingiz oyi, yaxshi tush ko'rib turdingizmi?

– Ha, bolam, xursand bo'lmay nima qilay, mana kuta-kuta nevarali ham bo'ldim. Endi Qodirjonning boshini ikkita qilib olsam edi, go'rimda oyog'imni uzatib, tinchgina yotardim. Hay, aylanay kelin, eringiz kelganda yana eski daftarni ochmang. O'tgan o'tdi, orqadagi gap – oxirdagi nishxo'rd. Ochilib-sochilib qarshi oling [2:130].

Yozuvchi bosh qahramon Sodiqni hayotning g'oyat sermashaqqat yo'llaridan olib o'tadi; uning boshiga ko'p og'ir

savdolar tushadi. «Sodiq shunchaki jafokash bir kimsa emas, u hammadan burun kurashchi, mardona shaxs» [4:306]. Qahramon sermashaqqat onlarda ham taqdirga tan berib, o'zini yo'qotib qo'ymaydi, aksincha, e'tiqodiga gard yuqtirmaydi, yuksak ideallariga sodiq qoladi, shu ideal yo'lida mardlarcha kurash olib boradi.

Sodiq komissardan ko'zini uzmay, uning yonida dushmanga o' yog'dirib borar ekan, o'zidan ancha narida bir komandirning uch-to'rtta nems avtomatchisi qarshisida yolg'iz qolganini, hali zamon nobud bo'lishi mumkinligini fahmlab o'zini o'sha tomonga urdi... Sodiq fritsning boshiga avtomat qo'ndog'i bilan birni tushurib, uni sulaytirdi-da komandirning ustidan surib olib tashladi. Hamon o'zini o'nlab ololmagan usti boshi qon komandirni ko'rib, devor bo'lib qoldi. Bu komandir - Sodiqning tergovchisi Chuxanov edi [2:354].

Asardan olingan lavhada uchragan odami Sodiq yillar davomida nafrat bilan eslab yurgan odami, uning tergovchisi edi. Inson qalbining murakkab kechinmalari ichra Sodiq ham bir on dovdirab qoldi. Yo'q. Bu dovdirash uning o'zidan esan-kirashi emas, balki Sodiq matonatining, sabrining sinovi edi. Inson irodasining naqadar kuchliligi, matonat va sabot, adolat va insoniylik g'oyalari roman bosh qahtamoni Sodiq obrazida mujassam.

Qatag'on mavzusi poetik talqini turli davr va yo'nalishlar kesimida muayyan darajada yoritilgan. Shuhratning «Oltin zanglamas» romani sobiq Ittifoq sharoitida yozilgan. Adib inson a'molini jamiyat maslagidan keltirib chiqaradi. Uningcha, har qanday ijtimoiy munosabatlar asosida ezgulik va razolat kurashi yotadi. Soqiq hayotini aynan siyosiy tutum emas, Mirsalim izdan chiqaradi. Lavhada amaldagi axloqiy mezonlarga ishonch hissi barq urib turadi. Muloqot keskin evrilishlarga ibtido vazifasini bajaradi. Tinch-osuda kechayotgan turmush tarzi g'alamis kimsalar yordamida butunlay o'zga o'zanga tushadi. Bosh qahramon jiddiy sinovlarga mardonavor dosh beradi. Muallif qatag'on mazmun-mohiyati, uning millat boshiga solgan fojealarini chetlab o'tishga intiladi. Ba'zi lavhalarda yozuvchi vaziyatni yumshatishga harakat qiladi, joriy holatni hukmron mafkura

ta'siri bilan izohlash maqsadga muvofiq. O'.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida esa tamomila boshqacha ijodkor yondashuvi kuzatiladi. Adib jarayon sabab va oqibatlarini tahlilda teran gavdalanitirishga urinadi:

Akam allaqancha gazeta yig'ib qo'ygan ekan. O'qib, hayron bo'ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan rejim yemirilgani, to'la demokratiya ro'yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida «o'zbek ishi» bo'yicha qamoqqa olingan obkomlar, raykomlar, raislar la'natlanadi. Birida odamlarni e'tiqodi uchun tazyiq ostiga olinganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo'l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib, Qur'on tilovat qilgan kommunist felyeton qilinadi... Qiziq [3:171].

Milliy istiqloq davri o'zbek adabiyoti solnomasida O'tkir Hoshimov ijodi mustahkam o'rin egallaydi. Epik tur barcha janrlarida jiddiy izlanishlar olib borgan yozuvchi adabiy talqinida ijtimoiy-falsafiy tafakkur ruhiy tahlilga payvandlanadi. Kasbi jurnalist bo'lgan Mauzer sinchkov nuqtai nazari bilan qatag'on maqsadini anglab yetadi. G'alati ziddiyat: ota va og'llar orasida dunyoqarash tafovuti ko'zga tashlanadi. Rustam aslida afg'on urushi jabrdiydasi. Uning iztirobi harbiydan qaytgach, yanada chuqurlashadi. Jiddiy o'zgargan hayot qahramonga keskin fojealar tayyorlagan: Otasi Shomansur Shomatov

hayoti davomida haq va haqsizlikka qarshi kurashgan shaxs bo'lsa-da, ammo ijtimoiy muhitning qurboniga aylangan edi. U uzoq yillar adolatli tarzda jamoa xo'jaligiga raislik qilgan bo'lsa-da, ammo hukmron mafkura oqibatida uni mahv etadi.

Umuman, Shuhratning «Oltin zanglamas» va O'.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asarlari analogiyasi shuni ko'rsatadiki, ikkala adib ham adabiy talqinda xarakter tabiatini hayotiy voqelik mantig'idan keltirib chiqaradi. Agar birinchi yozuvchi muammoni o'tkinchi illat sifatida baholasa, O'.Hoshimov ijtimoiy fojea tarzida umumlashtiradi. Har ikki romanga xos jihat qahramonlar amaliy ishlanganlik darajasi teranligi bilan izohlanadi. Bosqichma-bochqich tadrijda mantiqan asoslanadigan inson tiynati tahlilda maromiga yetadi. Ikki davr mafkurasini taqozosini tasdiqlagan adabiy talqinda amaldagi estetik ideal va uning taomillarini ko'rsatish yetakchi o'ringa ko'tariladi. «Oltin zanglamas»da Sodiq obrazi o'sish-o'zgarishlari voqelik fonida tasvirlansa, Rustam xarakteri kundaliklar, xotira, tafsilot va tuyg'ular kesishuvida qayta ishlanadi. Mavzu va problematika zichligi ilk namunada tasvir mantiqiy yig'iqiligi silsilasida aks etsa, keyingi adabiy talqinda yoyiq ifoda (Afg'on voqealari, paxta ishi, ijtimoiy adolatsizliklar) tahlili tarqoqligida yorqin ijtimoiy-ruhiy-falsafiy-ma'naviy mazmundorlik kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: «O'zbekiston», 2009.
2. Shuhrat. Oltin zanglamas. –Toshkent: «Sharq», 1999.
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. –Toshkent: «Sharq», 1994.
4. Normatov U. Ijod sehri. –Toshkent: «Sharq», 2007.

РЕЗЮМЕ

Maqolada xalqimiz boshidan o'tgan qora kunlar, qatag'on davri yoritilgan romanlar tahlilga tortiladi. Bunda asosan qatag'on mavzusining sobiq ittifoq davrida yoritilishi va joriy mavzuning bugungi kundagi talqini analogik aspektda tadqiq qilinadi. Maqolaga Shuhratning «Oltin zanglamas» va O'.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanlari asos qilib olingan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается анализу романов во время репрессии в нашей стране. В ней рассматривается описание темы репрессии в период бывшего Советского Союза и в настоящее время в аналогическом аспекте. Изучение этой темы проводится на примере романов «Олтин занглас» Шухрата и «Тушда кечган умрлар» У.Хашимова.

SUMMARY

The article deals with the analysis of novels during the repression in our country. The author of the article studies the topic of repression at the period of the former Soviet Union and at present time in the analogous aspect. The study of this topic has been done on the examples of the novels «Oltin zanglamas» by Shukhrat and «Tushda kechgan umrlar» by U.Hashimov

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Б.Ж.Шаниязов – кандидат филологических наук, доцент

Ф.Т.Отенова – кандидат биологических наук, доцент

А. Уразбаева – студентка 2 курса факультета иностранных языков

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: семантик типология, сўз маъноси, семантик система, лексик маъно, умумистеъмолдаги сўзлар.

Ключевые слова: семантическая типология, значение слова, семантическая система, лексическое значение, общепотребительные слова.

Key words: semantic typology, the naming of the word, semantic system, lexical meaning, common used words.

К проблематике семантической терминологии относятся вопросы соответствия терминов с соотносимыми с ними понятиями.

По классическому определению В.В.Виноградова лексическое значение слов – это предметно-вещественное содержание, оформленное по законам грамматики данного языка и являющееся элементом общей семантической системы словаря этого языка [1].

В научной литературе до сих пор не решена проблема описания терминологии как системы общелитературного языка в контексте лексикосемантических и грамматических категорий и процессов общелитературного языка. Исследования в этой области обозначают то общее, что связывает то отличное, что характерно для терминологии и выделяет её как подсистему.

Термин представляет собой исторически сложившуюся единицу терминологической системы, единицу, которая

обозначает понятия: термин представляет собой слово или словосочетание, служащее общению людей, объединённых общей специальностью, профессией, поэтому сфера его употребления обычно узка, чем сфера употребления слов неспециальных [5:174].

Т.Н.Великада определяет лексическое значение слова как существующую в нашем сознании связь между звуко-графической оболочкой слова и тем объектом или явлением внеязыковой действительности, которое оно называет (или отношением субъекта к внеязыковой реальности) [3:7].

Необходимость изучения семантики термина вызвана его особенностью использоваться в качестве наименования специального понятия. Лексическая единица языка наделяется терминологическим, т.е. понятийным значением, которое накладывается на её собственно языковое, т.е. лексическое значение [2].